

SA'DULLA HAKIM TO'RTLIKLARIDA HAYOTIY HAQIQATNING BADIY IFODASI

Nodirova Feruza Xolmurod qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Gmail: nodira@gmail.ru

+998 (94) 197 65 88

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22093809>

Annotatsiya: Sa'dulla Hakimning turfa mavzularni yoritgan to'rtliklarida inson va hayot o'rtasidagi murakkab va nozik munosabatlar chuqur badiiy ifodasini topgan. Ushbu maqola shoirning ichki kechinmalari, ruhiy holati, hayotdagi maqsadlari, orzu-umidlari va sinovlari to'rtliklarda teran falsafiy mushohadalar asosida yoritilishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'z: to'rtlik, she'r, tabiat, obraz, qadriyat, estetik, tengsizlik, muammo, manfaat, yetuklik.

Annotation: in the quatrains of Sa'dulla Hakim covering the subjects of peat, the complex and delicate relationship between man and life is deeply artistic in expression. This article reflects on the fact that the poet's inner experiences, mental state, goals in life, aspirations and trials are covered in quatrains on the basis of thoughtful philosophical observations.

Keyword: quartet, poem, nature, Image, value, aesthetic, inequality, problem, interest, maturity.

Аннотация: сложные и тонкие отношения между человеком и жизнью нашли глубокое художественное выражение в четырех книгах Садуллы Хакима, посвященных различным темам. В этой статье рассматриваются внутренние переживание, душевное состояние, жизненные цели, мечты и испытание поэта, освещенные в четверостишиях на основе глубоких философских наблюдений.

Ключевое слово: *четверостишие, поэзия, природа, образ, ценность, эстетика, неравенство, проблема, интерес, зрелость.*

Sa'dulla Hakim ijodiy merosi mazmun va mavzu jihatidan nihoyatda boy va rang-barangdir. Uning she'riy asarlarida Vatanga sadoqat, insoniylik fazilatlarini ulug'lash, tug'ilib o'sgan yurti – qishlog'i va uning betakror tabiati, tog'laru adirlar manzaralari, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, do'stlik va sadoqat kabi mavzular ustuvor o'rin egallaydi. Shoirning ijodi hayot haqiqatlarini ifodalashda badiiy obrazlardan keng foydalanishi bilan ajralib turadi. Uning to'rtliklarida oddiy voqea-hodisalar orqasida chuqur falsafiy mazmun yashiringan bo'lib, bu orqali u o'quvchini fikrlashga, hayot haqida mushohada yuritishga undaydi.

Shoirning turfa mavzularni yoritgan to'rtliklarida inson va hayot o'rtasidagi murakkab va nozik munosabatlar chuqur badiiy ifodasini topgan. Insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati, hayotdagi maqsadlari, orzu-umidlari va sinovlari she'rlarda teran falsafiy mushohadalar asosida yoritiladi. Shu jihatdan Sa'dulla Hakimning ijodi o'z o'quvchisini hayot haqida yanada kengroq o'ylashga, tabiat va jamiyat bilan bog'liqlikni chuqurroq anglashga da'vat etadi. Uning she'rlarida tabiat tasvirlari inson ruhiy holatlari bilan uyg'unlashtirilib, bir butun badiiy obrazlar tizimini hosil qiladi.

Shoir ijodida insonning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy hayotdagi faolligi, o'zaro munosabatlari, bir-biriga bo'lgan hurmat-e'tibor va ayrim hollarda qarama-qarshiliklar aniq aks ettiriladi. U she'riyat orqali jamiyatda yuz berayotgan muammolar, ijtimoiy tengsizliklar, insonlar orasidagi o'zaro tushunmovchiliklar yoki do'stona hamjihatlik holatlarini tasvirlaydi. Bu tasvirlar orqali shoir inson tabiatining rang-barang qirralarini ochib berishga intiladi.

Sa'dulla Hakimning she'rlari nafaqat estetik zavq beradi, balki o'quvchini hayotiy haqiqatlarga, jamiyatdagi voqeliklarga befarq bo'lmaslikka undaydi. Uning she'rlarida insoniyatning asosiy qadriyatlari – mehnat, sadoqat, vatanparvarlik,

mehr-oqibat kabi tushunchalar markaziy o'rinda turadi. Ayniqsa, inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar, ijtimoiy muammolar, shaxsiy va umumiy manfaatlar to'qnashuvi kabi masalalar chuqur badiiy tahlil etiladi. Misol tariqasida, shoir o'z she'rlarida oddiy kishilarning hayotini, ularning dardu hasratini, hayotga bo'lgan umidini va kurashchanligini aks ettirish orqali jamiyatdagi muammolarga o'z munosabatini bildiradi. Bu esa o'quvchiga inson va uning hayoti haqida yanada chuqurroq fikr yuritishga, hayotdagi har bir voqeaning asl mohiyatini anglashga yordam beradi. Shu tarzda Sa'dulla Hakim ijodi o'zining teran mazmuni, badiiy yetukligi va hayotiyligi bilan o'zbek she'riyati xazinasidan munosib o'rin egallaydi.

Sa'dulla hakimning "Yuksaklik" she'rida insonning kamtarinligi, o'zini bila olishi, kibr-havodan yiroq bo'lishi uqtiriladi:

Cho'qqida turibman.

Ruhimda bayram,

Yetgudayman cho'z sam qo'limni ko'kka.

Shuncha yuksaklikka ko'tarilsam ham

Hamon Ona-Yerda turibman tikka. [1, 213]

She'rning birinchi misrasida "cho'qqi" - eng yuqori nuqta, eng baland joyni anglatadi. Muallif o'zini jismonan yoki ruhiy jihatdan eng yuqori nuqtada, yuksak holatda tasvirlamoqda. Bu ifoda, inson o'zining eng yuqori darajaga yetishganligini bildiradi. Ikkinchi qator "ruhimda bayram" ifodasida "bayram" ruhiy holatni ifodalaydi. Muallifning ruhiy holati juda quvonchli, bayramona va to'liq qoniqarli. Bu yuqori nuqtada bo'lish, shuningdek, ichki ruhiy qoniqishni va bayram holatini taqdim etadi. "Yetgudayman cho'z sam qo'limni ko'kka" jumlasida muallif o'zini yuqori cho'qqida, hatto qo'lini osmon bilan bog'lash mumkinligi bilan ta'riflaydi. Qo'lini ko'kka cho'zish - yuksaklik darajasini va qo'l yetgan balandlikni bildiradi. Bu cho'qqida bo'lish holati, hayotda erishilgan yuksak natijalarning ifodasi sifatida qaraladi.

“Shuncha yuksaklikka ko‘tarilsam ham, hamon Ona Yerda turibman tikka” misralarida muallif, yuqori darajalarga erishgan bo‘lsa ham, ba’zi cheklovlar va haqiqiy holatlarning mavjudligini ta’kidlaydi. Yuksaklik va muvaffaqiyatning ham cheklovlari yoki qiyinchiliklari bo‘lishi mumkinligini bildiradi. Inson eng yuqori cho‘qqiga erishgan bo‘lsa ham, aslida, o‘zining ildizlarini, haqiqiylikini va yerga bog‘liqligini unutmasligi ta’kidlanadi. Bu yerda yuksaklikka erishishdan qat’i nazar, insonning o‘z ildizlariga, asl holatiga qaytishi uning haqiqati ekanligi ko‘rsatiladi.

Abdulla Oripovning “Dorboz” she’rida “Eh, biz, ba’zi ko‘zi ochiqlar, Eplab yurolmaymiz to‘g‘ri yo‘lda ham” deya afsuslanadi. [2, 96.] Ba’zan uzoq-uzoqlarga, yuksakliklarga mahliyo bo‘lib, oyog‘imiz tagidagi narsalarni unutib qo‘yamiz. Aslida yerda turganligimizni, shu yer bizni ulg‘aytirgan Ona-zamin ekanligimizni eslatib turishimiz lozimdek tuyuladi.

She’rda muallif o‘zini yuqori cho‘qqida, yuksaklikda va ruhiy holatda ifodalaydi. U ruhiy bayram va qoniqishni ta’kidlaydi, lekin shu bilan birga, yuqori cho‘qqiga erishgan bo‘lsa ham, o‘zining yerga bo‘ysunishini va ildizlarini saqlashini bildiradi. Cho‘qqida turish va yuqori darajalarga erishish ruhiy qoniqish va yuksaklikni bildiradi, lekin aslida, odamning o‘z ildizlariga va haqiqiy holatiga qaytishi kerakligi ta’kidlanadi. Bu she’r yuksaklik va erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, insonning o‘zligini saqlash muhimligini ko‘rsatadi.

Shoir “Nay” she’rida quyidagi ifodani qo‘llaydi:

-Ohanglaring munglar nahrimi,

Nay, bunchalar ma’yussan, nega?

-Aytolmagan hasratlarini

So‘zlashadi odamlar menga! [2, 213.]

Birinchi qatorda “ohang” ovoz, xabar ma’nosida, “mung” hasrat, qayg‘u ma’nosini anglatib, ushbu she’rda “munglamoq – qayg‘uga to‘lmoq, qayg‘urmoq ma’nolarida kelmoqda. “Nahr” so‘zi daryo ma’nosini anglatib, “nahrinni

munqatmoq" qayg'usini toshirmoq, alamlarini ko'paytirmoq" mazmunini anglatyapti.

Keyingi qatorda "nay" - musiqa asbobi va "ma'yuslik" so'zlari mazmun ifodalyapti. Bu yerda "nay" o'zining g'amli ohanglari bilan ifodalangan qayg'u yoki dardni ifodalaydi. "Bunchalar" va "nega" so'zlari, nayning qandaydir darajada qayg'u yoki dardni aks ettirishi va bu holatni tushunishga urinishni bildiradi. Nay, o'zining qayg'uli ohanglari orqali nimadir ta'sir etishi yoki tushunarsizlikni ko'rsatishi mumkin. Nayning "aytolmagan hasratlarini" odamlarning aytilmagan, tushuntirilmagan his-tuyg'ulari haqida so'z boradi. Hasrat, qalbdagi chuqur qayg'u yoki sog'inchni ifodalaydi. Bu his-tuyg'ular o'z ifodasini topmagan, yoki so'z bilan ifodalanmagan, ammo ular hali ham mavjud.

She'ning oxirgi qatorida, odamlarning aytilmagan hasratlari yoki qayg'ularini biror kishi yoki biror vosita orqali o'zaro gaplashish yoki ulashish holati ta'kidlanadi. Yani, odamlarning ichki dard va qayg'ulari, musiqiy ohanglar yoki boshqa vositalar orqali ifodalanadi va boshqalarga yetkaziladi.

Jaloliddin Rumi: "Nay ne hikoyatlarf qiladur, Ul ayriliddan shikoyatlar qiladur" misralarida nayning holatini, uning kechmishi va qayg'ularini ifodalab beradi. Abdulla Oripov "Munojot"ni tinglab..."she'rda ohangning kuchini shunday izohlaydi:

Qani ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan, bag'rimni ohang.

Nega kerak bo'ldi senga ko'z-yoshim,

Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am? [2, 96.]

She'rda musiqiy ohanglar, ayniqsa nay, qayg'u, hasrat va ichki dardni ifodalaydi. Nayning qayg'uli nag'malari yoki ohanglari odamlarning ichki hasratlarini va dardlarini yoritadi. Odamlarning aytilmagan yoki ifodalangan hasratlari musiqiy vositalar orqali o'z ifodasini topadi va ular bu dard va qayg'ularini boshqalarga yetkazadi. She'rda musiqa odamlarning ichki holatlarini,

qayg'ularini va hasratlarini qanday aks ettirishi mumkinligini va bu ifodalarni qanday qilib boshqalarga yetkazish tavsiflanadi. "Sa'dulla Hakim ijodiga doir taassurotlarimning ikkinchi jihati quyidagicha. Har qabday fikrni, har qanday g'oyani, tashbihni uddasidan chiqib ayta olish, tasvirlay bilish san'atkorlikning eng muhim xususiyatidir", [3, 4.]deb aytganlarida Abdulla Oripov nafaqat Sa'dulla Hakimni balki o'zini ham tar'riflagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ikki shoirimiz ham ijodkorlar ichida alohida ajralib turadi.

She'riy matn ustida ishlashda tahlilning kiritilishi shoir va yozuvchining ijodiy laboratoriyasiga kirib borishga, falsafiy mulohazaning muallifning ruhiy holati bilan qanday bog'liqligini, obrazlarni yaratish va unga egalik qilgan fikr va his-tuyg'ularni anglashning badiiy vositalari qanday ekanligini aniqlashga imkon beradi. Shu sababli L.Vigotskiy "San'at - bu amalga oshirilmagan adabiy jarayonni amalga oshirish natijasidir", deya ta'kidlaydi. Inson shug'ullanadigan turli xil ijod turlari mavjud. Boy ma'naviy hayot – bu inson faoliyatining boshqa sohalarida qo'llanilmagan imkoniyatlaridan oqilona foydalanish imtiyozi hisoblanadi. Adabiy asar bilan aloqa ham shunday bo'lib, muallif boshdan kechirgan narsalarni boshdan kechirishga va qayta o'ylashga majbur qiladi. Badiiy matnni estetik idrok qilish badiiy ijod jarayoniga o'xshaydi, garchi u bunday kuchli hissiy tajribalarni real boshidan o'tkazmayotgan bo'lsa ham, qaysidir ma'noda jarayon ishtirokchisi hisoblanadi.

Sa'dulla Hakimning hayot va inson borasidagi kichik hajmli she'rlarini estetik idroksiz, faqat hissiyyot yoki aql bilan anglash qiyinchilik tug'diradi. Misralar mazmuniga yashiringan ma'no idrok etish jarayonidagina voqealanadi. S.Rubinshteyn "Umumiy psixologiya asoslari" asarida insonning hissiy holatini uning ijodiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda kuzatadi. S.Rubinshteyn in'ikosni "bizning sezgilarimizga ta'sir qiladigan obyektiv voqelik hodisasi" ning hissiy aksi sifatida tavsiflaydi. Idrokning mohiyatini o'rganib, olim idrok harakat bilan, aniq faoliyat bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga keladi. Badiiy idrok,

olimning fikriga ko'ra, badiiy asarni talqin qilish va tushunishni o'z ichiga olgan murakkab faoliyatdir.

Sa'dulla Hakim "Yurak" she'rida insonning mohiyatini asoslashga intiladi:

Yuraging umringdir, orom bilmaydi,
Og'risa og'risin, qilmagil hasrat.
Neki yonib yashar asrab bo'lmaydi,
Neki tabiiydur bo'lmaydi asrab! [1, 213.]

Yurak insonning hayotiy kuchi va mavjudligi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aytiladi. "Orom bilmaslik" – yurakning tinchlik yoki qulaylikni bilmasligini bildiradi. Demak, muallif yurakning doimiy qayg'u va tashvishlar bilan yuzlashishini ko'rsatadi. Muallif, yurakdagi og'riq va hasratlarning mavjudligini, bu holatlarni qanday bo'lishidan qat'i nazar qabul qilishni ta'kidlaydi. O'zingizni bu holatlardan qochishga harakat qilmaslik kerakligini bildiradi. "Yonib" va "asrab" so'zlari qiyinchiliklar va muammolarni ifodalaydi. Qiyinchiliklarga, og'riqlarga qaramasdan, ular bilan yashashning tabiiyligi va bu holatlarni saqlashning imkonsizligini bildiradi. She'ning oxirgi misralarida "tabiiy" va "asrab" tushunchalari mavjud. Ba'zi narsalar tabiiy ravishda sodir bo'lishi va saqlanishi mumkin emasligi anglatiladi. Bu, insonning ichki holatlari, og'riqlari va his-tuyg'ularining tabiiyligini va ularni qabul qilish zarurligini ko'rsatadi. Zero, Ibrohim G'afurov aytganlaridek, Sa'dulla Kakim she'rlari ham shunaqa – ichiga bir kirsangiz kirib ketaverasiz, tog'ma-tog', bog'ma-bog', yurakma-yurak o'tib boraverasiz, megr o'rtada kamaymaydi.[3, 96.]

She'r yurak va umrning bir-biri bilan bog'liqligi, dard va hasratlarni qabul qilish zarurligi haqida gapiradi. Yurakning tinchlikni bilmasligi, og'riq va hasratlarning mavjudligi muallifning fikriga ko'ra, inson hayotining tabiiy bir qismidir. Qiyinchiliklar va og'riqlar, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, inson hayotida tabiiy hodisalardir va ular bilan yashashni o'rganish kerakligi ta'kidlanadi.

She'r, insonning ichki dardlari va his-tuyg'ularining tabiiyligini va ularni qanday qilib qabul qilish zarurligini ko'rsatadi.

Darhaqiqat, jadallik bilan yonayotgan narsani asrash amrimahol ishdir. O'z o'rnida tabiiy narsalarning barchasi o'tkinchi. Qachondir o'zining xususiyatini o'zgartiradi. Tabiiy va sun'iy gullarning farqi ham shunda. Sun'iy gul doimo bir xil ko'rinishida turaveradi. Tabiiy gulda bunday xususiyat yo'q. Lekin unda sun'iy gul egalik qilolmaydigan ajib xislatlar mavjud.

Bizga ma'lumki, she'riy asarlarni badiiy idrok etish shaxsni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. She'riy asarni anglash, avvalo, uni his qilish deganidir. San'atni idrok qilish tuyg'udan boshlanishi kerak, aks holda bu o'ta samarasiz jarayondir. Ammo badiiy idrok, albatta, his qilish bilan cheklanib qolmaydi. Bu avvalo "his qilish", so'ngra "fikrlash" va bundan tashqari juda chuqur mulohaza qilish hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sa'dulla Hakim, Tanlangan asarlar. She'rlar, tarjimalar, hikloyalar, dostonlar. – T.: "Sharq", 2022. – B. 213
2. Oripov A. Ruhim. She'rlar, T.:Badiiy-adabiy nashr. -2016. 96-b
3. Sa'dulla Hakim zamondoshlari xotirasida. Sharaf bilan yashalgan umr / Sa'dulla Hakim – T.: "Sharq", 2022. B. 4
4. Mirzayeva N. The problem of the metaphorical image in poetry of the 20th century. (Garsiya Lorka va Shavkat Rahmon she'riyati misolida) Fil.fan.fal. dok. diss. Toshkent. -2006. 146.b
5. Vohidov E. Shoir-u she'r-u shuur.-T.:Yosh gvardiya. 1987. 216.b